17. $ABCD$ to'rtburchakda: $AB = CD, BC = AD$. Agar A burchak B burchakdan 4 marta katta bo'lsa, to'rtburchakning A burchagini toping. A) 124° B) 144° C) 132° D) 148°

18. Chizmadagi uchburchaklar sonini toping.

- A) 24 B) 28 C) 30 D) 26

19. $f(x) = ax + b$ funksiya grafigi $A(-1;3)$ va $B(1;7)$ nuqtalar orqali o'tadi.

- $f(4 - f(-1))$ ni toping A) 10 B) 9 C) 12 D) 7



20. Ikkinchi raqami uchinchi raqamidan 4 marta katta, birinchi raqami esa ikkinchi raqamidan 3 ta kam bo'lgan uch xonali sonlar nechta? A) 1 B) 2 C) 3 D) 4

3-qism: Har bir topshiriq 2,6 ballardan baholanadi

21. Ikkinchi raqami uchinchi raqamidan 1 ta kam bo'lgan uch xonali sonlar sonini toping.

22. Hisoblang: $\left(\frac{1^2}{1 \cdot 3} + \frac{2^2}{3 \cdot 5} + \frac{3^2}{5 \cdot 7} + \dots + \frac{10^2}{19 \cdot 21}\right) \left(2 - \frac{1}{11}\right)$

23. Agar $\frac{1}{a^2-2} + \frac{1}{a^2+2} = 0,5$ bo'lsa, $20 \cdot \left(\frac{1}{a^2-2a+2} + \frac{1}{a^2+2a+2}\right)^2$ ning qiymatini toping.

24. Agar $AB = 12, BC = 14, CD = 2$ bo'lsa, aylana radiusini aniqlang.

25. Soddalashtiring $\left(\sqrt{6} + \sqrt{2} - \frac{\sqrt{3} + 3\sqrt{2} + \sqrt{6} + 1}{\sqrt{2} + 2\sqrt{3} + \sqrt{6} + 1} - 1\right) \cdot \sqrt{12}$

26. $-16 \leq 2(y - 7) \leq 0$ va $-7 \leq x \leq 8$ bo'lsa, $x^2 - y^2$ ifodaning eng kichik qiymatini toping.



27. Raqamlari yig'indisi 2 ga teng bo'lgan o'n xonali natural sonlar nechta?

28. $a = 0,12(12), b = 0,1(21), c = 0,12(11)$. Agar $a + b + c = 0, x_1 x_2 x_3 x_4 \dots x_{2021} x_{2022} x_{2023} \dots$ bo'lsa, x_{2022} ni toping (bunda, $x_1, x_2 \dots$ raqamlar).

29. Oila erkak kishi, uning ayoli va talaba qizidan iborat. Agar erkak kishining maoshi 2 barobar ohsa, u holda oila daromadi 67% ga ortadi, agar talaba qizning stipendiyasi 3 barobar kamaysa, oila daromadi 4% ga qisqaradi. Ayolning maoshi oila daromadining necha foizni tashkil qiladi?

30. Ikki son o'rtasidagi Δ operatsiyasiga ko'ra quyidagi natijalar olindi:

$$5 \Delta 2 = 74$$

$$3 \Delta 3 = 66$$

$$5 \Delta 4 = 98$$

$$9 \Delta 11 = 2022$$

$12 \Delta 1$ operatsiya natijasini toping.



1-qism: Har bir topshiriq 0,9 balldan baholanadi

1. $ABCD$ qavariq to'rtburchakka aylana ichki chizilgan. Agar $AB = 7$, $BC = 11$ bo'lsa, $CD - AD$ ni toping.


- A) 5 B) 2 C) 3 D) 4

2. $x^2 + y^2 + \sqrt{3}y - \sqrt{5}x = 1$ tenglama bilan berilgan aylananing markazi koordinata tekisligining qaysi choragida yotadi? A) I B) II C) III D) IV

3. Supermarketda reklama aksiyasi o'tkazilmoqda: 3 ta shokolad sotib olgan xaridorga 4-shokolad sovg'a tariqasida qo'shib beriladi. Bitta shokolad narxi 28000 so'm. Xaridor 300 000 so'm evaziga eng ko'pi bilan nechta shokolad xarid qila oladi? A) 11 B) 14 C) 13 D) 12

4. Chizmada $ABCD$ –paralleloqramm. DE ni ntoping.

- A) 6 B) 9 C) 5 D) 4



5. Soddashtiring: $\frac{a^2-b^2}{a+b} - \frac{a^3+b^3}{a^2-b^2} - (ab - 2a^2) \cdot (a - b)^{-1}$

- A) $2b$ B) $a + b$ C) $2a$ D) $a - b$

6. Qavariq o'n ikki burchakning diagonallar sonini toping. A) 54 B) 48 C) 36 D) 40

7. k parametrning qanday musbat qiymatida $20x^2 + kx + 5 = 0$ tenglama bitta ildizga ega?

- A) 40 B) 20 C) 10 D) 5

8. x_1 va x_2 sonlari $x^2 - 7x - 1 = 0$ tenglama ildizlari bo'lsa, $x_1^2 + x_2^2$ ni toping.

- A) 4 B) 49 C) 53 D) 51

9. Tenglamani yeching: $\frac{7(2x-(3x-1))}{15} - \frac{8(3x-(2x-1))}{17} = \frac{7}{15}(1-x)$. A) $\frac{15}{17}$ B) 0 C) $\frac{8}{17}$ D) -1

10. Soddashtiring: $\frac{|a^2-25|}{5+a} - \frac{|a^2-16|}{a-4}$ bunda, $|a| < 3$ A) $2a - 9$ B) 9 C) $9 - 2a$ D) $1 - 2a$

2-qism: Har bir topshiriq 1,5 balldan baholanadi

11. Uchinchi raqami to'rtinchi raqamidan 1 ga kichik bo'lgan to'rt xonali sonlar sonini toping

- A) 900 B) 990 C) 720 D) 810

12. $f(x) = ax^2 + b$ funksiya grafigi $A(-1;5)$ va $B(2;-1)$ nuqtalardan o'tadi. $f(5 - f(1))$ ning qiymatini toping. A) 5 B) 2 C) 6 D) 7

13. 4 ga karrali va o'nli yozuvida 4, 5, 6, 8 raqamlari bo'lmagan to'rt xonali sonlar nechta?

- A) 120 B) 210 C) 180 D) 150

14. $y = 4x^2 - 3x - 5$ parabolaga $O(0;0)$ nuqtaga nisbatan simmetrik bo'lgan parabola tenglamasini ko'rsating. A) $y = 4x^2 - 3x + 5$ B) $y = -4x^2 - 3x + 5$

- C) $y = -4x^2 - 3x - 5$ D) $y = 4x^2 + 3x - 5$

15. $a^3b^2 = 1024$ tenglikni qanoatlantiruvchi nechta $(a; b)$ butun sonlar juftligi mavjud?

- A) 3 B) 4 C) 5 D) 2

16. $\sqrt{x} + \sqrt{x+5} = \frac{10}{\sqrt{x}}$ tenglama nechta haqiqiy yechimga ega? A) 1 B) 2 C) 3 D) 4



17. Agar $\frac{1}{x} = \frac{3}{y+z} = \frac{5}{z+x}$ bo'lsa, $\frac{z-y}{x}$ ni toping. A) 4 B) 4,5 C) 5 D) 3,5
18. 1,2,3,4,...,2021,2022 sonlar orasidan nechitasi 3 ga ham, 7 ga ham bo'linmaydi?
A) 1084 B) 1156 C) 1128 D) 1098
19. Agar $8^{\frac{a-1}{b}} = 5$ va $125^{\frac{b}{a}} = 4$ bo'lsa, $\left(\frac{2^a}{5^b}\right)^7$ ni toping. A) 8 B) 4 C) 0,8 D) 0,16
20. $y = x^2 - 2$ parabolaga $x = 2$ to'g'ri chiziqqa nisbatan simmetrik bo'lgan parabola tenglamasini tuzing.
A) $y = x^2 - 8x - 2$ B) $y = x^2 + 8x - 14$ C) $y = x^2 + 8x + 2$ D) $y = x^2 - 8x + 14$

3-qism: Har bir topshiriq 2,6 balldan baholanadi


21. $(a + a^2 + a^3) + \left(\frac{1}{a} + \frac{1}{a^2} + \frac{1}{a^3}\right) = 28$ bo'lsa, $(2a - 3)^2$ ifodaning qiymatini toping.

22. Chizmada $AE = 2, BE = 6, DE = 3$. Aylana diametrini toping.

23. $f(x) = \frac{1+x+x^2+x^3+\dots+x^{2020}+x^{2021}}{1+x^3+x^6+x^9+\dots+x^{2019}}$ bo'lsa, $f(5 - f(1 - f(1 - f(0))))$ ni toping.

24. Agar $f(x) + (x + 2)f(1 - x) = x - 3$ bo'lsa, $(f(0) + f(1)) \cdot f(-2)$ ning qiymatini toping.


25. $ABCD$ qavariq to'rtburchakda $\angle BAD = \angle CDA = 60^\circ, \angle BDA = \angle CAB, AB = 2$ va $CD = 9$ bo'lsa, AD ni toping.



26. a parametrning qanday musbat qiymatlarida $x^2 - (a + 3)x + 3a + 11 = 0$ tenglamaning barcha ildizlari butun sonlardan iborat bo'ladi?

27. Tenglamani yeching: $\sqrt{6x - x^2 - 5} + \sqrt{6x - x^2 - 8} = 3 + \sqrt{4x - x^2 - 3}$.

28. $\angle BAD = \angle ABD = 20^\circ, \angle DBC = 110^\circ, \angle BCD = 30^\circ$ va $AB = 2, CD = ?$



29. Ikki son o'rtasidagi Δ operatsiyasiga ko'ra quyidagi natijalar olindi:

$$9 \Delta 2 = 117$$

$$3 \Delta 3 = 60$$

$$5 \Delta 4 = 91$$

$$11 \Delta 9 = 202$$

$7 \Delta 1$ operatsiya natijasini toping.

30. Raqamlari yig'indisi 3 ga teng bo'lgan o'n xonali natural sonlar nechta?



1-qism: Har bir topshiriq 0,9 balldan baholanadi.

- Soddalashtiring: $\frac{|a^2-9|}{3+a} - \frac{|4+a^2-5a|}{a-4}$ bunda, $|a| < 1$. A) $2a + 4$ B) -2 C) $2 - 2a$ D) $4 - 2a$
- $f(3) \cdot (x - 2) + f(x - 1) = 3x$ bo'lsa, $f(1)$ ni toping. A) 4 B) 2 C) 3 D) 6
- Soddalashtiring: $\frac{\sin 12^\circ + \sin 14^\circ}{\sin 12^\circ - \sin 14^\circ} \cdot \operatorname{ctg} 1^\circ \cdot \operatorname{ctg} 13^\circ$
A) -1 B) $-\operatorname{ctg} 1^\circ$ C) $-\operatorname{ctg} 13^\circ$ D) $-\operatorname{ctg}^2 1^\circ$
- Soatning minut mili 144° ga burilganda, soatning soat mili qanday burchakka burilada?
A) 6° B) 12° C) 18° D) 8°
- To'g'ri burchakli uchburchakning bir burchagi 60° ga teng. Bu burchakdan chiqarilgan bissektrisaning uzunligi 2 m. Uchburchakning gipotenuzasi uzunligini toping.
A) $2\sqrt{3}$ B) $\sqrt{5}$ C) $\sqrt{3}$ D) $\sqrt{5} + 1$
- Soddalashtiring: $\sqrt{-16a} + \sqrt[3]{-27a} + \sqrt{-9a} + 3\sqrt[3]{a}$
A) $-7\sqrt{a}$ B) $-\sqrt{-a} - 6\sqrt[3]{a}$ C) $7\sqrt{-a}$ D) $-\sqrt[3]{a} - \sqrt{-a}$
- Tenglamani yeching: $\frac{211-4x}{21} - \frac{221-3x}{22} = \frac{20+3x}{22} - \frac{30+4x}{21}$ A) 0 B) $\frac{29}{462}$ C) $\frac{10}{21}$ D) \emptyset
- Uchlari $A(2; -3)$, $B(6; -1)$, $C(6; 4)$ va $D(2; 2)$ nuqtalarda bo'lgan $ABCD$ to'rtburchak yuzini toping.
A) 20 B) 18 C) 16 D) 15
- x soniga teskari bo'lgan son x ning 9%ini tashkil qiladi. x ni toping. (bu yerda, $x > 0$)
A) $4\frac{1}{3}$ B) $5\frac{1}{3}$ C) $2\frac{2}{3}$ D) $3\frac{1}{3}$
- Arifmetik progressiyada $a_2 = 12$, $a_7 - a_4 = 9$ bo'lsa, a_{19} ni toping A) 63 B) 54 C) 61 D) 56

2-qism: Har bir topshiriq 1,5 balldan baholanadi

- Nargizada 2 ta olma va 3 ta nok bor. U 5 kun ketma-ket har kuni singliga bittadan meva beradi. Bu ishni necha usul bilan amalga oshirish mumkin? A) 10 B) 8 C) 12 D) 6
- Tengsizliklar sistemasining butun yechimlari sonini toping $\begin{cases} \log_2(x-4)^2 \leq 4 \\ (x-2)^2 \geq 4 \end{cases}$
A) 5 B) 4 C) 6 D) 7
- $y = x^2 - 2x + 3$ parabolaga $y = 3$ to'g'ri chiziqqa nisbatan simmetrik bo'lgan parabola tenglamasini tuzing. A) $y = x^2 - 2x - 3$ B) $y = -x^2 + 2x - 3$ C) $y = -x^2 - 2x + 3$ D) $y = -x^2 + 2x + 3$
- Agar $\sin 2\alpha = \frac{1}{3}$, $\alpha \in \left[\frac{\pi}{4}; \frac{\pi}{2}\right]$ bo'lsa $\sin^2 \alpha$ ni toping.
A) $\frac{1}{2} + \frac{\sqrt{2}}{3}$ B) $\frac{\sqrt{2}}{2} + \frac{1}{3}$ C) $-\frac{1}{2} + \frac{\sqrt{2}}{3}$ D) $\frac{1}{2} - \frac{\sqrt{2}}{3}$
- $x_n = \frac{2n+1}{3}$ formula bilan berilgan sonli ketma-ketlikning dastlabki 20 ta hadining o'rtta arifmetigini toping. A) $\frac{25}{6}$ B) $\frac{20}{3}$ C) $\frac{22}{3}$ D) $\frac{23}{6}$



16. O'tkir burchakli uchburchakning ikki tomon uzunliklari ayirmasi 8, bu tomonlarning uchinchi tomondagi proyeksiyalari mos ravishda 8 va 20 ga teng. Berilgan uchburchakka tashqi chizilgan aylana radiusini toping. A) $13\frac{5}{6}$ B) $12\frac{1}{3}$ C) $14\frac{1}{6}$ D) $11\frac{2}{3}$

17. Agar $4\frac{a+1}{b} = 125$ va $5\frac{b}{a} = 2$ bo'lsa, $\frac{25^{b+1}}{5a^2}$ ifodaning qiymatini toping.
A) 0,8 B) 4 C) 20 D) 0,05

18. Hisoblang: $\frac{1}{1^2 \cdot 3^2} + \frac{2}{3^2 \cdot 5^2} + \frac{3}{5^2 \cdot 7^2} + \dots + \frac{n}{(2n-1)^2(2n+1)^2}$
A) $\frac{n(n-1)}{(2n+1)^2}$ B) $\frac{n(n+1)}{(2n+1)^2}$ C) $\frac{n(n+1)}{2(2n+1)^2}$ D) $\frac{n(n-1)}{2(2n+1)^2}$


19. $BC = BE = CD$, $\angle DAE = 20^\circ$, $\angle BCD = 60^\circ$, $\angle ADE = ?$ (chizmaga qarang)
A) 30° B) 20° C) 50° D) 40°

20. $a^2b^5 = 6^{20}$ tenglikni qanoatlantiruvchi nechta $(a; b)$ butun sonlar juftligi mavjud?
A) 10 B) 18 C) 14 D) 12

3-qism: Har bir topshiriq 2,6 balldan baholanadi


21. $P(x^2 - 5x) = x + \frac{1}{x} + x^3 + \frac{1}{x^3}$ bo'lsa, $P(-1)$ ni toping.

22. Muntazam uchburchak 36 ta yuzi 1 ga teng bo'lgan kichkina muntazam uchburchaklardan iborat (chizmaga qarang!). ABC uchburchak yuzini toping.



23. Raqamlari yig'indisi 10 dan kam bo'lmagan, raqamlari ko'paytmasi esa 10 dan katta bo'lmagan uch xonali sonlar nechta?

24. ABCD - kvadrat, AC-diagonal. Agar $AE=BE+CE$ ($a+b=c$) bo'lsa, $\angle AEB$ burchakni toping(chizmaga qarang!).



25. $(3 - \cos^2 x - 2\sin x)(\lg^2 y + 2\lg y + 4) \leq 3$ bo'lsa, $\sin^2 x + 20y + 1$ ni toping.

26. Natural son roppa-rosa 2 ta tub bo'luvchiga, bu sonning kvadrati esa 45 ta turli natural bo'luvchiga ega. Berilgan sonning kubi eng ko'pi bilan nechta natural bo'luvchiga ega bo'lishi mumkin?

27. ABC uchburchakda $ctgA + ctgB = 3$ va $AB = 12$ bo'lsa, ABC uchburchak yuzini toping.

28. Doskaga $a_1, a_2, a_3, \dots, a_{200}$ sonlari yozilgan. Ma'lumki, $a_1 = 3$, $a_2 = 9$. Agar ixtiyoriy n natural son uchun $a_{n+2} = a_{n+1} - a_n$ tenglik o'rinli bo'lsa, a_{200} ni toping.

29. $\angle CAD = 2\angle ACD$, $AC = 13a$, $BD = 5a$ va $AB = CD$ bo'lsa, $20 \cdot \cos \angle ACD$ ni toping.(chizmaga qarang!)

30. (u_n) ketma-ketlik quyidagicha berilgan: $u_1 = 1$, $u_{n+1} = u_n + 8n$. U holda, $u_{50} - u_{30}$ ni toping.



1-qism: Har bir topshiriq 0,9 balldan baholanadi.

1. Aniq nisbatda berilgan gapni aniqlang.

- A) Davron bilan Maqsud musobaqada ko'rishdi.
- B) U o'zining kuchini shaxmatda ko'rsatdi.
- C) Respublikamizda katta o'zgarishlar yuz bermoqda.
- D) Jinoyatchilar ishi qayta ko'rildi.

2. Matni o'qing. Quyidagi berilgan sarlavhalardan qaysi biri matn uchun mos emas?

*Yoz! Bu fasl haqida qancha gapirsang oz!
Bog'larga bir qarang! Olma, gilos, o'riklar pisha
boshlayapti. Ishkomlarda chillaki uzumlarga rang
kiryapti. Polizlarda handalaklar dum beryapti.
Yozning ilk ne'mati qulupnayni aytmayisizmi?
Qulupnay, handalaklar pishganda dalaga yaqin
borsang, hididan dimog'ing yayraydi. Ko'm-ko'k, zilol
suvlar, uzoq-uzoqlardagi tog'larning cho'qqilari
"Bag'ringa kel!" deb imlayotganday! Ha, yoz - soz
fasl. Har yili yozni, dam olish oromgohlarini intiqlik
bilan kutamiz. Biroq yoz faqat dam olish fasligina
emas, mehnat fasli hamdir. Yozning issiq kunlarida
shirin-shakar mevalar pishadi, polizlarda xilma-xil
sabzavotlar yetiladi, bularning barchasi tinimsiz
mehnatning natijasidir. Yoz faslida uy solish,
xonalarni ta'mirlash kabi ishlarni bajarish ham
rejalashtiriladi. Farzandlar dam olish bilan birga uy
yumushlarida ota-onalariga ko'maklashadilar.*

- A) Yoz tarovati
- B) Mehnat fasli
- C) Yozdagi mevalar
- D) Fasllar go'zalligi

3. Quyidagilardan o'tgan zamon sifatdoshi berilgan qatorni toping.

- A) Ketgan
- B) Ketadigan
- C) Barchasi o'tgan zamon sifatdoshi
- D) Ketayotgan

4. Quyidagi so'zlardan ijobiy fazilatni ko'rsatilgan so'zlarni belgilang.

- A) ishyoqmas
- B) ochiko'z
- C) dangasa
- D) oq ko'ngil

5. Ko'rsatilgan misollardan mavhum otlar berilgan qatorni toping.

- A) vijdon, go'zallik, sevgi
- B) ezgulik, kiyik, avtobus
- C) chopmoq, o'qish, yurak
- D) havorang, tirma, yovuzlik

6. otmoq, bezatmoq- ushbu so'zlar fe'lning qaysi nisbatiga kiradi?

- A) ortirma nisbat
- B) o'zlik nisbat
- C) aniq nisbat
- D) majhul nisbat

7. Qaysi qatordagi qo'shimchlar kelishik qo'shimchalari hisoblanadi?

- A) -da, -ni, -ning
- B) -li, ba-, -bo
- C) -gi, -chi, -kor
- D) -ona, -siz, -lab

8. Kim? Nima? so'rog'iga qaysi gap bo'lagi javob bo'ladi?

- A) Aniqlovchi
- B) Ega
- C) Hol
- D) To'ldiruvchi

9. Tasdiq ma'nosini bildiruvchi vositalar to'g'ri berilgan qatorni ko'rsating?

- A) noto'g'ri, aksincha.
- B) shunday, shekilli.
- C) yo'q, bilmayman.
- D) ha, to'g'ri.

10. Berilgan gaplardan shaxsi umumlashgan gaplarni toping.

- A) Keksalarni e'zozlaylik
- B) Bilmagan kasbga urinma, urinib tuzoqqa ilinma.
- C) Nahorga oshga chiqing
- D) O'ylab ko'rsam u haq ekan.

2-qism: Har bir topshiriq 1,5 balldan baholanadi

11. Noto'g'ri berilgan ma'lumotni belgilang.

- A) Faqat yuklamasi ajratib yozilmaydi
- B) -da chiziqcha bilan yoziladigan yuklama hisoblanadi
- C) Qo'shib yoziladigan yuklamalarga -mi, -gina kiradi
- D) Ham yuklamasi alohida ajratib yoziladi



12. Matni o'qing. Ostiga chizilgan so'zlar qaysi so'z turkumidiligini aniqlang?

*Yoz! Bu fasl haqida qancha gapirsang oz!
Bog'larga bir qarang! Olma, gilos, o'riklar pisha boshlayapti. Ishkomlarda chillaki uzumlarga rang kiryapti. Polizlarda handalaklar dum beryapti. Yozning ilk ne'mati qulupnayni aytmayisizmi? Qulupnay, handalaklar pishganda dalaga yaqin borsang, hididan dimog'ing yayraydi. Ko'm-ko'k, zilol suvlar, uzoq-uzoqlardagi tog'larning cho'qqilari "Bag'ringa kel!" deb imlayotganday! Ha, yoz - soz fasl. Har yili yozni, dam olish oromgohlarini intiqlik bilan kutamiz. Biroq yoz faqat dam olish fasligina emas, mehnat fasli hamdir. Yozning issiq kunlarida shirin-shakar mevalar pishadi, polizlarda xilma-xil sabzavotlar yetiladi, bularning barchasi tinimsiz mehnatning natijasidir. Yoz faslida uy solish, xonalarni ta'mirlash kabi ishlarni bajarish ham rejalashtiriladi. Farzandlar dam olish bilan birga uy yumushlarida ota-onalariga ko'maklashadilar.*

- A) ot, sifat, fe'l
- B) sifat, ot, ravish
- C) ot, ravish, fe'l
- D) olmosh, sifat, fe'l

13. Ish-harakat va uning bajaruvchisi o'rtasidagi munosabat nima deyiladi?

- A) nisbat zamon shakli
- B) bo'lishsizlik shakli
- C) fe'l deyiladi
- D) vazifadosh shakli

14. Ravishdoshlar qaysi qo'shimchalar yordamida yasaladi?

- A) -li, -siz, be
- B) -gach, -guncha, -gani
- C) -gan, -kan, -qan
- D) -sh, -ish, -moq

15. Sifatdosh nechta zamon shakliga ega?

- A) bitta
- B) ikkita
- C) uchta
- D) to'rtta

16. Gapda olmoshning qaysi ma'no turi qatnashgan?

Birovlarning fikri bilan kelajagingni qurma.

- A) gumon
- B) o'zlik
- C) bo'lishsizlik
- D) kishilik

17. Qaysi qatorda yordamchi fe'llar berilgan?

- A) qilmoq, olmoq
- B) kerak, bo'ladi
- C) zarur, kerak
- D) harakat, bo'lmoq

18. Berilgan gapdagi kesim qaysi so'z turkumi bilan ifodalangan?

Ushbu joy bolaning g'amini ham, hursandchiligini ham, sevgisini ham ko'rgan.

- A) ravishdosh
- B) sifatdosh
- C) harakat nomi
- D) fe'l

19. Quyidagilardan hol qatnashgan gap qatorni aniqlang.

- A) Balandlikka chiqishda avtomobillar taqa-taq to'xtab qoldi.
- B) Tog'am chiroyli kiyim olib keldilar.
- C) Ukam menga qaradi, men ukamga qaradim.
- D) Qiziqchi o'zining kulguli so'zi bilan hammani o'ziga qarattidi.

20. Bog'lovchi bilan yasalgan gapda qanday ma'no ifodalab kelinmoqda?

Chunki qorong'u tushib qolgan edi.

- A) Aniqlov ma'nosi ifodalanmoqda.
- B) Sabab ma'nosi ifodalab kelinmoqda.
- C) Inkori ma'nosi ifodalab kelinmoqda.
- D) Shart ma'nosi ifodalab kelinmoqda.

3-qism: Har bir topshiriq 2,6 balldan baholanadi

21. Matni o'qing. Qaysi meva yozda birinchi pishadigan meva deb tarfilangan?

*Yoz! Bu fasl haqida qancha gapirsang oz!
Bog'larga bir qarang! Olma, gilos, o'riklar pisha boshlayapti. Ishkomlarda chillaki uzumlarga rang kiryapti. Polizlarda handalaklar dum beryapti. Yozning ilk ne'mati qulupnayni aytmayisizmi? Qulupnay, handalaklar pishganda dalaga yaqin borsang, hididan dimog'ing yayraydi. Ko'm-ko'k, zilol suvlar, uzoq-uzoqlardagi tog'larning cho'qqilari "Bag'ringa kel!" deb imlayotganday! Ha, yoz - soz fasl. Har yili yozni, dam olish oromgohlarini intiqlik bilan kutamiz. Biroq yoz faqat dam olish fasligina emas, mehnat fasli hamdir. Yozning issiq kunlarida shirin-shakar mevalar pishadi, polizlarda xilma-xil sabzavotlar yetiladi, bularning barchasi tinimsiz mehnatning natijasidir. Yoz faslida uy solish, xonalarni ta'mirlash kabi ishlarni bajarish ham rejalashtiriladi. Farzandlar dam olish bilan birga uy yumushlarida ota-onalariga ko'maklashadilar.*

- A) Handalak
- B) Uzum
- C) Qulupnay
- D) Gilos, olma, o'rik

22. Vazifadosh ko'makchi qatnashgan gapni toping.

- A) Men do'stim bilan kutubxonaga bordim.
- B) Bola kun sayin, soat sayin o'sib borardi.
- C) Biz yurtimiz uchun hamma narsaga tayyormiz.
- D) U tomon bir to'da bollalar yugurib ketishdi.



23. Quyidagi berilganlardan sodda sifat qatnashgan qatorni toping.

- A) havorang, qimmatbaho;
- B) tinchliksevar, jonkuyar;
- C) katta, go'zal
- D) harakatchan, shifobaxsh;

24. Nuqtalar o'rniga mos yuklamalarni qo'ying.

- 1) *Nok shirin bo'ladi... , ammo hosilga kech kiradi... .*
2) *Bu ishni sen... uddalarsan, biroq ukang eplarmikin?*
- A) -ku; -da; -ku. B) -u; -da; -ku.
 - C) ham; -da; -ku. D) -yu; -da; -ku.

25. Bayon qilingan fikrning tartibini bildiruvchi modal so'zlar qatnashgan gapni belgilang.

- A) Aksincha, o'quvchilar bir-biridan qolmaslik uchun harakat qildilar.
- B) Xususan, o'zaro kelishuvga erishganliklari foyda keltirdi.
- C) Avvalo, ularning bu ishlari qayerdan boshlanganini bilish zarur.
- D) Demak, xulosa qilsak ham bo'ladi.

26. Undalmalar gapda qanday tinish belgilari bilan ajratiladi?

- A) vergul, nuqta B) undov, vergul
- C) ikki nuqta D) qavs, qo'shtirnoq

27. Hozirgi zamon sifatdoshi berilgan gap qatorini aniqlang.

- A) O'zbekistonda uzoq vaqt davomida yartilgan me'moriy yodgorliklar saqlanib qolgan.
- B) Jahonda elektron texnika ixtiro qilgan kompaniyalar juda ko'p.
- C) Asrlar mobaynida rangini yo'qotmay kelayotgan bo'yoqlar siri kashf etilmadi.
- D) Kelajakda o'zbek tilida o'qiydigan maxsus dasturlar yaratiladi.

28. Quyidagi berilgan ma'lumotlardan qaysi biri noto'g'ri?

- A) Chunki bog'lovchisi sabab ma'nosini ifodalab keladi.
- B) Agar bo'g'lovchisi shart ma'nosini ifodalab keladi.
- C) Ya'ni bog'lovchisi aniqlov ma'nosini ifodalab keladi.
- D) Zero bog'lovchisi tartib ma'nosini ifodalab keladi.

29. Quyidagi berilgan javoblardan mosini tanlab nuqtalar o'rnini to'ldiring.

..... – tinglovchiga qaratilib, biror ish-harakatni bajarishga undaydigan gaplar: ma, mang, qani, marhamat, xo'sh kabi so'zlar.

- A) Taklif so'z-gaplar
- B) Tasdiq so'z-gaplar
- C) Modal so'z-gaplar
- D) Inkor so'z-gaplar

30. Quyidagi berilgan gaplarda nechta yuklama qatnashgan?

- 1) *Yig'ilishga faqat Murod kelmadi.*
2) *Keksalarga yordam berish hammamizning burchimiz-ku!*

- A) uchta
- B) ikkita
- C) to'rtta
- D) bitta



1-qism: Har bir topshiriq 0,9 balldan baholanadi

1. Kesim tuzilishiga ko'ra nechta turga bo'linadi?

- A) 3 turga bo'linadi.
- B) 4 ta turga bo'linadi.
- C) 2 ta turga bo'linadi.
- D) 5 ta turga bo'linadi.

2. Matni o'qing va mos keladigan nomni aniqlang.

Tillashayx masjidi toshkentlik mashhur Tillashayx tomonidan bunyod etilgan. Me'moriy obida o'z dizayni bilan o'z davrida qurilgan masjidlardan ajralib turgan. Inshoot to'rtburchak tarhli, gumbazsimon, masjidning ikki yonida uncha katta bo'lmagan minoralar bo'lib, masjidga arksimon qilib qurilgan ayvon orqali kiriladi. Arklar soni 3 ta. Masjidning tashqi tomoni bezaklardan xoli bo'lib, uning ikki yonida masjidga yorug'lik tushishini ta'minlash uchun 18 ta deraza o'rnatilgan. Masjidning ichki ko'rinishi tashqi ko'rinishidan mutlaqo farq qiladi, undagi ganch naqshlar, gulli bezaklar insonni beixtiyor o'ziga jalb qiladi. Masjid ichidagi gumbaz osti naqshlar ham o'zining nafisligi bilan boshqalardan ajralib turadi. Masjidni yoritish maqsadida qandillar ham o'rnatilgan. Masjidning bugungi kungacha va bugungi holati haqida gapiradigan bo'lsak, masjid usta Shirin Murodov tomonidan ta'mirlangan. 2007-yil Hastimom majmuasi bunyod etilgan davrda me'moriy obida atrofidagi e'tiborga molik obidalar ham ta'mirlandi.

- A) Hastimom majmuasi
- B) Usta Shirin Murodov yodgorligi
- C) Temuriylar maqbarasi
- D) Tillashayx masjidi

3. Qaysi so'zlar talaffuzida so'z oxiridagi jarangli undosh tushib qoladi?

- 1) gramm; 2) poyezd; 3) go'sht; 4) kilovatt.
- A) 1, 2, 3, 4
 - B) 1, 2, 3
 - C) 1, 2
 - D) 3, 4

4. Berilgan gapdagi nuqtalar o'rniga mos so'zni qo'ying?

"Amakimning qizi Sevara ... Samarqandga bormagan."

- A) hech qachon
- B) har doim
- C) har qachon
- D) allaqachon

5. Qaysi qatordagi qo'shimchlarni so'zga qo'shganda yangi so'z yasab bo'lmaydi?

- A) -da, -ni, -ning
- B) -li, ba-, -bo
- C) -gi, -chi, -kor
- D) -ona, -siz, -lab

6. Sifatdan yasalgan so'zni aniqlang.

- A) qiynamoq
- B) do'stlik
- C) qaynoq
- D) beaql

7. va, ham, hamda bog'lovchilarning qaysi turiga kiradi.

- A) biriktiruv bog'lovchisi
- B) zidlov bog'lovchisi
- C) ayiruv bog'lovchisi
- D) inkor bog'lovchisi

8. Fe'l nisbatini aniqlang.

Buyumlarga qo'l tegizilmasin!

- A) birgalik
- B) majhul
- C) orttirma
- D) o'zlik

9. Ushbu parchadagi olmoshlar sonini aniqlang.

Sen niholsan, zavoling – o'zim,

Sen – tiriklik, men esa o'lim.

Kunduz bo'lsang, men tun bo'laman,

Sen bor bo'lsang, butun bo'laman. (E. Vohidov)

- A) 7 ta
- B) 4 ta
- C) 6 ta
- D) 5 ta

10. His-hayajon undovlari ishtirok etgan gapni aniqlang.

- A) Yosh bo'lsa-da, barchaga bosh bolam.
- B) Televizorni faqat kechqurunlarigina ko'radi.
- C) Keksalarga yordam berish hammamizning burchimiz/
- D) Hoy, kim bor, yordam bering!

2-qism: Har bir topshiriq 1,5 balldan baholanadi

11. Quyidagi berilgan gaplardan qaysi birida ravishdosh bilan ifodalangan kesim berilgan?

- A) Men maktabga boraman.
- B) Motor gurullab, mashina oldinga intildi.
- C) Botir xatni kecha yuborgan
- D) 8- "B" sinf o'quvchilari musobaqadan qaytishdi.



22. Matni o'qing. Quyidagi berilgan javoblardagi qaysi ma'lumot mantda keltirilgan ma'lumotlarga mos emas?

Tillashayx masjidi toshkentlik mashhur Tillashayx tomonidan bunyod etilgan. Me'moriy obida o'z dizayni bilan o'z davrida qurilgan masjidlardan ajralib turgan. Inshoot to'rtburchak tarhli, gumbazsimon, masjidning ikki yonida uncha katta bo'lmagan minoralar bo'lib, masjidga arksimon qilib qurilgan ayvon orqali kiriladi. Arklar soni 3 ta. Masjidning tashqi tomoni bezaklardan xoli bo'lib, uning ikki yonida masjidga yorug'lik tushishini ta'minlash uchun 18 ta deraza o'rnatilgan. Masjidning ichki ko'rinishi tashqi ko'rinishidan mutlaqo farq qiladi, undagi ganch naqshlar, gulli bezaklar insonni beixtiyor o'ziga jalb qiladi. Masjid ichidagi gumbaz osti naqshlar ham o'zining nafisligi bilan boshqalardan ajralib turadi. Masjidni yoritish maqsadida qandillar ham o'rnatilgan. Masjidning bugungi kungacha va bugungi holati haqida gapiradigan bo'lsak, masjid usta Shirin Murodov tomonidan ta'mirlangan. 2007-yil Hasimom majmuasi bunyod etilgan davrda me'moriy obida atrofidagi e'tiborga molik obidalar ham ta'mirlandi.

- A) Masjidning ichki qismini bezashda gulli bezaklar, ganch naqshlaridan foydalanilgan.
- B) Masjidning tashqi tomonida bezaklar yo'q.
- C) Yodgorlik Shirin Murodov tomonidan bunyod etilgan.
- D) Tillashayx masjidida arklar soni uchtani tashkil etadi.

23. Berilgan namunlardan qaysi birida faol kirish so'zlar ishtirok etmagan?

- A) Birinchidan, matni diqqat bilan o'qib chiqish kerak, ikkinchidan uning mazmunini so'zlab berish kerak.
- B) Afsus, futbol jamoamiz musobaqada yutqizib qo'ydi.
- C) Ehtimol, men uni ertaga ko'raman.
- D) Abdulla Avloniy, o'z davri boshlang'ich maktablari uchun bir nechta o'quv qo'llanmalar yaratgan.

24. Ey, baxt ulashganlar, bizga qo'shiling! Yuqoridagi gapda undalma qaysi so'z turkumi bilan ifodalab keltirilgan?

- A) Olmosh bilan
- B) Sifatdosh bilan
- C) Sifat bilan
- D) Ot bilan

25. Quyidagi berilgan gaplarga mos keluvchi nisbat qo'shimchalarni toping.

- 1) *Nurga to'ldi dara, to'ldi soy,
Nur yog'...di qorong'u jarga.*
 - 2) *Yaltiraydi, doim tovla...ar,
Oy nuriga cho'miluvchu tosh.*
 - 3) *Dalalarda boshla...adi ish,
Boshla...adi ijod va tashvish.*
- A) -in, -n, -l, -in.
 - B) -il, -n, -n, -in.
 - C) -il, -n, -n, -n.
 - D) -il, -in, -n, -in.

26. Berilgan ma'lumotlardan to'g'risini toping.

- A) Mazmunan faqat I va II shaxsga talluqli gaplar shaxsi umumlashgan gaplar deyiladi.
- B) Shaxsi topilmas gaplar egasini topib ham, gap tarkibiga kiritib bo'lmaydigan gaplarga aytiladi.
- C) Ikki so'zdan iborat bo'lib, boshqa so'zlar bilan kengaya olish imkoniga ega gaplar so'z-gaplar deyiladi.
- D) Modal so'z-gaplar his-tuyg'uni ifodalab keladi.

27. Nuqtalar o'rniga mos ravishda qanday undoshlar qo'yilishi kerak?

- Hamma yo...da to'kin-sochinlik. Shunday yurt...a yashayot...animizdan fa...rlansak arziydi.*
- A) g', t, k, h
 - B) q, d, t, x
 - C) g', d, k, x
 - D) q, d, g, x

28. Ayiruv bo'g'lovchisi ishtirok etgan gapni toping.

- A) Ikkovi ham onasiga uy-ro'zg'or ishlariga yordam berishdi.
- B) A'zamjon va Azizjon maktabdan uyga kelishdi.
- C) Kechki payt yo Sobir, yoki Hasan ukasini bog'chadan olib keladi.
- D) U na do'stini na ukasini topa olamdi.

29. Ushbu gapda qaysi nisbat shaklidagi fe'l qo'llanmagan?

Chaqirilmagan joyga bormas, rejalarini ertaga goldirmas edi.

- A) aniq nisbat
- B) orttirma nisbati
- C) majhul nisbat
- D) o'zlik nisbati

30. Quyidagi jonzot nomlaridan nechtasi o'z shakldoshiga ega?

- 1) *ot;* 2) *bit;* 3) *sug'ur;* 4) *sher;* 5) *qurt;* 6) *qarg'a.*
- A) 3 tasi
 - B) 4 tasi
 - C) 5 tasi
 - D) 6 tasi



1-qism: Har bir topshiriq 0,9 balldan baholanadi

1. ... egani yoki to'ldiruvchini aniqlab, qanday?, qanaqa?, qaysi? so'roqlariga javob bo'ladi.

- A) aniqlovchi B) hol
C) kesim D) hol va kesim

2. Sabab holi ishtirok etgan gapni belgilang.

- A) Oz-oz o'rganib dono bo'lur.
B) Dushman chorasizlikdan taslim bo'ldi.
C) Olimjon orqada qoldi.
D) Kecha majlis bo'ldi.

3. Quyidagi sinonimlar qatorida noto'g'ri so'z qo'llangan javobni belgilang.

- A) ko'p, talay, bisyor
B) xunuk, badbashara, aft
C) hur, ozod, erkin
D) xirpa, tullak, ayyor

4. Ikkinchi darajali bo'laklarga nimalar kiradi?

- A) ega, kesim
B) faqat kesim.
C) hol, kesim, ega
D) aniqlovchi, to'ldiruvchi, hol

5. Qaysi javoblarda gap bo'laklariga to'g'ri ajratilgan?

Aziza ertalab she'r yozadi.

- A) ega, hol, to'ldiruvchi, kesim
B) ega, kesim, to'ldiruvchi, hol
C) hol, ega, to'ldiruvchi, kesim
D) kesim, to'ldiruvchi, hol, kesim

6. Quyidagi berilgan gapning turini aniqlang.

Sayohatga juda erta kelibsan.

- A) Tasdiq gap
B) Inkor gap
C) Buyruq gap
D) Yig'iq gap

7. Berilgan gapdagi sifatdoshni aniqlang.

Olimpiadaga qatnashuvchi talabalar jurnali yozildi.

- A) olimpiadaga
B) qatnashuvchi
C) talabalar
D) yozildi

8. Bosh harf bilan yozish qoidasi amal qilib yozilgan birlikni aniqlang.

- A) Davlat Soliq Qumitasi
B) Vazirlar Mahkamasi
C) Oliy Xo'chalik Sudi
D) Adliya Vazirligi

9. Ot-kesim qatnashgan gapni belgilang.

- A) Qushlar chiroyli sayrayapti.
B) Bizning yurtida har doim mehmon aziz.
C) Nodira uyga vazifalarini qilib bo'lmadi.
D) Dronlar bugungi kunda harbiy kuch sifatida foydalanilmoqda.

10. Berilgan namunalardan qaysi birida bog'lovchi vositasida qo'llanuvchi so'zlar berilgan?

- A) goho, ba'zan, goh
B) biroq, ammo, lekin
C) shuning uchun, agar
D) deb, bo'lsa, esa



2-qism: Har bir topshiriq 1,5 balldan baholanadi

11. Matnni o'qing. "Yerning o'z o'qi atrofida aylanish" ilmiy nazariyasi kim tomonidan takror isbotlanganligini belgilang?

Izlanish, tekshirish va ilmiy tadqiqot natijasida, ba'zan esa tasodifan topilgan yoki yaratilgan ilmiy yangilik kashfiyot hisoblanadi. Insoniyat bosib o'tgan tarixiy jarayonda juda ko'p kashfiyotlar qilingan.

- Jahondagi eng buyuk kashfiyot Beruniyning "Yerning o'z o'qi atrofida aylanishi va sayyoralarining Quyosh atrofida aylanishi" to'g'risidagi ilmiy nazariyasidir.

- Ushbu ilmiy nazariya 500 yildan so'ng Yevropada Kopernik tomonidan takrorlangan. Keyingi olamshumul kashfiyot Nyutonning "Butun olam tortishish qonuni" hisoblanadi. Insoniyat tomonidan "Atom va vodorod bombalarining o'ylab topilishi" mudhish kashfiyot sanaladi. Kashfiyot bilan ixtironi bir-biridan farqlash kerak. Kashfiyot natijasida muayyan qonunlar yaratiladi. Fanda muhim yangiliklarning yuzaga kelishi ixtiro deyiladi. Jahondagi mashhur ixtirolarga Arximedning suv chiqarish vinti, nemis talabasi Motor tomonidan ichki yonuv dvigatelining yaratilishi, Fon Bravun va Korol Yov tomonidan raketalarni yasash va boshqalar kiradi.

- A) Nyuton
- B) Karol Yov
- C) Kopernik
- D) Beruniy

12. Matndagi ajratib ko'rsatilgan so'zlarni qaysi so'z turkumlariga mosligini aniqlang?

Izlanish, tekshirish va ilmiy tadqiqot natijasida, ba'zan esa tasodifan topilgan yoki yaratilgan ilmiy yangilik kashfiyot hisoblanadi. Insoniyat bosib o'tgan tarixiy jarayonda juda ko'p kashfiyotlar qilingan.

- Jahondagi eng buyuk kashfiyot Beruniyning "Yerning o'z o'qi atrofida aylanishi va sayyoralarining Quyosh atrofida aylanishi" to'g'risidagi ilmiy nazariyasidir.

- Ushbu ilmiy nazariya 500 yildan so'ng Yevropada Kopernik tomonidan takrorlangan.

Keyingi olamshumul kashfiyot Nyutonning "Butun olam tortishish qonuni" hisoblanadi. Insoniyat tomonidan "Atom va vodorod bombalarining o'ylab topilishi" mudhish kashfiyot sanaladi. Kashfiyot bilan ixtironi bir-biridan farqlash kerak. Kashfiyot natijasida muayyan qonunlar yaratiladi. Fanda muhim yangiliklarning yuzaga kelishi ixtiro deyiladi. Jahondagi mashhur ixtirolarga Arximedning suv chiqarish vinti, nemis talabasi Motor tomonidan ichki yonuv dvigatelining yaratilishi, Fon Bravun va Korol Yov tomonidan raketalarni yasash va boshqalar kiradi.

- A) ot, hol, sifat
- B) sifat, ravish, sifat
- C) ot, sifat, sifat
- D) ot, ravish, hol

13. Bo'sh qoldirilgan joylarni kerakli qo'shimchalar bilan to'ldiring.

Men ko'p kitob o'qiy.... Kerak... joylarini eslab qolish uchun kitob... varaqlarini buklab, ma'lumotlarning tagi... chizib qo'yaman.

- A) -man; -li; -ni; -ga.
- B) -man; -li; -ning; -ga.
- C) -man; -lik, -ni; -dan.
- D) -man; -lik; -ning; -ga;



14. Gapdagi // o'rnida qanday tinish belgisi bo'lishi kerak?

Pul bo'lsa // changalda sho'rva.

- A) vergul
- B) nuqtali vergul
- C) tire
- D) ikki nuqta

15. To'ldiruvchi quyidagi so'z turkumlaridan qaysi biri bilan gapda ifodalanib kelmaydi?

- A) ot bilan
- B) otlashgan sifat bilan
- C) sifatdosh bilan
- D) yuqoridagi ifodalangan so'z turkumlarining barchasi bilan ifodalanadi

16. Qavs ichidagi ma'nolar ifodalanishi uchun nuqtalar o'rniga qaysi so'z qo'yilishi lozim?

Ovqatni ... ("ulashmoq"), qamchi ... ("urmoq"), qo'yni ... ("o'lchamoq").

- A) bermoq
- B) uzmoq
- C) urmoq
- D) tortmoq

17. Ushbu gapda holining qaysi turi ishtirok etgan?

Gapiravermagach o'zim so'roqqa tutdim.

- A) sabab holi
- B) payt holi
- C) o'rin holi
- D) holat holi

18. Kelishik qo'shimchalarini qo'llash bilan bog'liq xatolik uchraydigan javobni aniqlang.

A) Maqsadlarimizga erishish uchun oldimizda turgan to'siq va g'ovlarni yengib o'tishimiz kerak.

- B) Salohiyatimizni yurtimizning xalqaro maydondagi obro'-e'tibori oshishi uchun safarbar etamiz.
- C) Nasimning otasi Qo'qonnigina emas, butun xonlikning tanilgan kishilaridan edi.
- D) Xalqimizning eng noyob fazilatlaridan biri – uning bir tan, bir jon bo'lib yashashidir.

19. Gapda qaysi bo'laklar uyushib kelgan?

Bu hududning tabiati, havosi, sharoiti juda yaxshi.

- A) aniqlovchi
- B) kesim
- C) hol
- D) ega

20. Berilgan gapda nechta payt holi ishtirok etgan?

Kecha maktab tomonidan ikki marta majlis o'kazildi va kelasi o'quv yili uchun rejalar belgilandi.

- A) uchta
- B) ikkita
- C) to'rtta
- D) bitta

3-qism: Har bir topshiriq 2,6 balldan baholanadi

21. Quyidagi ega haqidagi ma'lumotlardan nechtasi to'g'ri?

Ega harakatning bajaruvchisini bildirib keladi. Ega kim?, nima?, qayer? so'roqlariga javob bo'ladi.

Ega doimo bosh kelishik shaklida bo'ladi.

Ega egalik va ko'plik shakllarini qabul qiladi.

- A) bittasi
- B) ikkitasi
- C) uchtasi
- D) to'rttasi

22. Matnni o'qing. Unga mos nomni aniqlang.

Izlanish, tekshirish va ilmiy tadqiqot natijasida, ba'zan esa tasodifan topilgan yoki yaratilgan ilmiy yangilik kashfiyot hisoblanadi. Insoniyat bosib o'tgan tarixiy jarayonda juda ko'p kashfiyotlar qilingan.

- Jahondagi eng buyuk kashfiyot Beruniyning "Yerning o'z o'qi atrofida aylanishi va sayyoralarning Quyosh atrofida aylanishi" to'g'risidagi ilmiy nazariyasidir.

- Ushbu ilmiy nazariya 500 yildan so'ng Yevropada Kopernik tomonidan takrorlangan.

Keyingi olamshumul kashfiyot Nyutonning "Butun olam tortishish qonuni" hisoblanadi. Insoniyat tomonidan "Atom va vodorod bombalarining o'ylab topilishi" mudhish kashfiyot sanaladi. Kashfiyot bilan ixtironi bir-biridan farqlash kerak. Kashfiyot natijasida muayyan qonunlar yaratiladi. Fanda muhim yangiliklarning yuzaga kelishi ixtiro deyiladi. Jahondagi mashhur ixtirolarga Arximedning suv chiqarish vinti, nemis talabasi Motor tomonidan ichki yonuv dvigatelining yaratilishi, Fon Bravun va Korol Yov tomonidan raketalarni yasash va boshqalar kiradi.



- A) Sharq olimlari
- B) Kashfiyot va ixtirolar
- C) Insoniyat tamadduni
- D) Olimlarning ilmiy tadqiqotlar

23. Berilgan gaplardan ot-kesimga misol bo'la oladigan gaplarni belgilang.

1) *Osmonimiz musaffo*; 2) *Qushlar uchib keldi*; 3) *Gullar ochildi*; 4) *Mehmon aziz*.

- A) 1; 3
- B) 2; 4
- C) 3; 4
- D) 1; 4

24. Quyidagi berilgan gaplarning nechtasida tire to'g'ri qo'yilgan?

1) *Ikki karra to'rt – sakkiz*; 2) *Vatan – muqaddas*; 3) *Mening iqroram – shu*; 4) *Niyatim – o'qish*; 5) *Odob – insonning boyligi*.

- A) Ikki to'g'ri; uchta noto'g'ri.
- B) Uchta to'g'ri; ikki noto'g'ri.
- C) To'rt to'g'ri; uchta noto'g'ri.
- D) Berilgan barcha holatlarda tire to'g'ri qo'llangan.

25. Berilgan gapda nechta to'ldiruvchi qatnashgan va to'ldiruvchining nechtasi otlashgan sifat bilan ifodalangan?

Yaxshiga qora yuqmas, yomonga el boqmas.

- A) Gapda ikki to'ldiruvchi bor. Ikkalasi ham otlashgan sifat bilan ifodalangan.
- B) Gapda bitta to'ldiruvchi bor. To'ldiruvchi otlashgan sifat bilan ifodalangan.
- C) Gapda ikki to'ldiruvchi bor. Bittasi otlashgan sifat bilan ifodalangan.
- D) Gapda uchta to'ldiruvchi bor. Ikkatasi otlashgan sifat bilan ifodalangan.

26. Vositasiz to'ldiruvchi ishtirok etgan gapni toping.

- A) Bu olmani ukam uchun oldim.
- B) Yaxshidan bog' qolar, yomondan dog'.
- C) Birni kessang, o'nni ek.
- D) Til qilichdan o'tkir.

27. Berilgan namunlardan qaysi birida faol kirish so'zlar ishtirok etgan?

- A) Usmon Nosir juda qisqa umr ko'rdi.
- B) Afsus, futbol jamoamiz musobaqada yutqizib qo'ydi.
- C) Anvar va men musobaqaga ertaga soat sakkizda boramiz.
- D) O'rta asrlarda Xitoy va Hindiston paxtaning vatani hisoblangan.

28. Qaysi gapda yasama so'zlar soni nisbatan ko'proq?

- A) Istarali kishining kiyimidagi yamoqlar ham yarashib turadi.
- B) Ota-onaning roziligi umrni ziyoda qiladi.
- C) Kimki berahmdir — rahm qilinmas, Kechirmaganlarni kechirmas Oллоh.
- D) Biror yangilik eshitib qolsangiz, bizni xabardor qiling.

29. O'zlashtirma gapning kesimi qanday fe'llar bilan ifodalanadi?

- A) gapirmoq, so'zlamoq, demoq
- B) so'ramoq, buyurmoq, aytmoq
- C) aytmoq, gapirmoq
- D) demoq, aytmoq, gapirmoq

30. Berilgan gapda necha o'rinda vergul tushib qolgan?

Darhaqiqat bolalarning xulqi odobi yurish-turishi ko'cha-ko'ya mahallada o'zini tutishi do'stlari orasidagi obro'-e'tibori oila yumushlariga qo'shayotgan hissasi bilan doimo qiziqib turish lozim.

- A) 8 o'rinda
- B) 6 o'rinda
- C) 7 o'rinda
- D) 5 o'rinda



1-qism: Har bir topshiriq 0,9 balldan baholanadi


1. Quyidagi qaysi materik hududini qutbiy doira chizig'i kesib o'tmagan?

- A) Janubiy Amerika B) Yevrosiyo
C) Antarktida D) Shimoliy Amerika

2. Italiyada shahar aholisining ulushi qancha?

- A) 91 % B) 57 % C) 85 % D) 70 %

3. Rasmda "k" harfi bilan daryo vodiysining qaysi elementi ko'rsatilgan?



- A) estuariy B) irmoqlar
C) suvayirg'ich D) daryo manbai

4. Sovetskoye platosi quyidagi qaysi geografik obyektga eng yaqin joylashgan?

- A) Shimoliy qutbga B) Verxoyansk tizmasiga
C) Erebus vulqoniga D) Pantanal botqoqligiga

5. Quyidagi qaysi IES yiliga 13 mlrd kW · h elektr energiya beradi?

- A) Navoiy IES B) Sirdaryo IES C) Talimarjon IES D) Farg'ona IES

6. Mamlakatimizda shahar aholisining salmog'i 1989-yildagiga nisbatan 2019-yilda qanday o'zgardi?

- A) 10,5 % ga ko'paydi B) 9,5 % ga ko'paydi
C) 9,5% ga kamaydi D) 10,5 % ga kamaydi

7. Quruqlikda tabiat zonalarining hosil bo'lishi quyidagilarning qaysi biriga bog'liq emas?

- A) Relyefga B) Havo haroratiga C) Albedoga D) Yog'in miqdoriga

8. Iqlim xaritalarida yog'in miqdori bir xil bo'lgan nuqtalarni tutashtiruvchi chiziqlar nima deb ataladi?

- A) Izogiyetalar B) Izotaxalar C) Izobaralar D) Izogipslar

9. Tamaki-fermentatsiya zavodi respublikamizning qaysi viloyatida ishga tushirilgan?

- A) Navoiy B) Surxondaryo C) Toshkent D) Samarqand

10. Quyidagi qaysi tog' tizmasida balandlik mintaqalarining soni kamroq?

- A) Hindukush B) Tyanshan C) Bruks D) Kilimanjaro


2-qism: Har bir topshiriq 1,5 balldan baholanadi

11. Quyidagi qaysi shaharlarda paxta tozalash hamda yog' sanoati uchun mashina va uskunalar ishlab chiqaruvchi zavodlar joylashgan?

- A) Toshkent, Qo'qon, Jizzax, Namangan B) Toshkent, Samarqand, Buxoro, Termiz
C) Toshkent, Farg'ona, Navoiy, Andijon D) Toshkent, Andijon, Samarqand, Kattaqo'rg'on


12. Quyidagi rasmda Mariana va Kermadek cho'kmalari qaysi raqamlar bilan ko'rsatilgan?





- A) 4 va 7 B) 3 va 6 C) 1 va 2 D) 4 va 6

13. 1986-yil Yevropa Ittifoqiga a'zo bo'lgan davlatlar rasmda qaysi raqamlar bilan ko'rsatilgan?



- A) 3 va 9 B) 1 va 4 C) 2 va 6 D) 7 va 8

14. Yevropadagi kichik rivojlangan mamlakatlar qaysi variantda to'g'ri ko'rsatilgan?

- A) Belgiya, Avstriya, Shvetsiya B) Lyuksemburg, Belgiya, Italiya
C) Polsha, Norvegiya, Daniya D) Shveysariya, Serbiya, Niderlandiya

15. Polineziya tarkibiga kirmaydigan orollar berilgan javobni belgilang.

- A) Santa Krus, Tuamotu B) Taiti, Gavayi C) Nauru, Bismark D) Finiks, Pasxa

16. Havo haroratining yillik amplitudasi quyidagi qaysi yo'nalishda ortib boradi?

- A) Shimoldan janubga tomon B) Ekvatordan qutblarga tomon
C) Tog'larning cho'qqisidan etagiga tomon D) Daryo manbaidan mansabiga tomon

17. Jeneva ko'li vujudga kelishiga ko'ra qanday ko'llar guruhiga mansub?

- A) Tektonik B) To'g'onli C) Morena D) Laguna

18. Grenlandiya va Islandiya orollari orasidagi bo'g'iz nomini belgilang.

- A) Deyvis B) Lankaster C) Daniya D) Mak-Klintek


19. Yarimorolda joylashgan davlatlar to'g'ri berilgan qatorni belgilang.

1) Yaponiya; 2) Norvegiya; 3) Ispaniya; 4) Shri-Lanka; 5) Vyetnam; 6) Koreya Respublikasi; 7) Islandiya; 8) Kuba; 9) Italiya.

- A) 2, 4, 6, 7, 9 B) 2, 3, 5, 6, 9 C) 1, 4, 5, 6, 8 D) 1, 3, 5, 7, 8

20. Qishda Murmansk portining muzlamasligiga sabab bo'luvchi oqimlar quyidagi xarita-sxemada qaysi sonlar bilan ko'rsatilgan?





- A) 9, 10, 12 B) 1, 2, 4 C) 16, 17, 19 D) 9, 8, 7

3-qism: Har bir topshiriq 2,6 balldan baholanadi


- 21. Quyidagi mamlakatlar orasidan mutlaq teokratik monarxiya tipiga kiruvchi davlatlarni ajrating.**
1. Ummon; 2. Daniya; 3. Qatar; 4. Saudiya Arabistoni; 5. Belgiya; 6. Brunej; 7. Vatikan.
A) 3 va 4 B) 4 va 7 C) 1 va 3 D) 5 va 6
- 22. Gvineya qo'ltig'i mamlakatlari orasida neft-gaz zaxiralariga eng boy davlat qaysi?**
A) Nigeriya B) Gvineya C) Togo D) Gana
- 23. 10°–20° janubiy kengliklar oralig'ida joylashgan poytaxt shaharlarni aniqlang.**
A) Vindxuk, Jakarta, Lilongve, Kito, Singapur B) Antananarivu, Lima, Lusaka, Brazilia, Xarare
C) La-Pas, Asunson, Santyago, Maputu, Kigali D) Luanda, Dili, Montevideo, Lusaka, Maseru
- 24. Ptolemej tuzgan "Dunyo xaritasi"da 5 va 6 raqamlari bilan qaysi daryolar ko'rsatilgan?**



- A) Ra va Istr B) Gang va Nil C) Oks va Yaksart D) Hind va Nil


- 25. Sulina shahri 45° shimoliy kenglik, 29° sharqiy uzoqlikda joylashgan. Shahardan Janubiy qutbgacha bo'lgan masofani kilometr hisobida aniqlang.**
A) 4 999,5 B) 14 998,5 km C) 9 999 km D) 1 914,5 km

- 26. Quyidagi rasmda nima tasvirlangan?**



- A) Iliq front B) Geotermik o'choq C) Termik depressiya D) Sovuq front

27. Rasmda ko'rsatilgan A nuqtaning mutlaq balandligi 400 m, u yerdagi havo bosimi 730 mm Hg. B nuqtadagi havo bosimini aniqlang.




- A) 610 mm Hg B) 550 mm Hg C) 600 mm Hg D) 580 mm Hg

28. Hind okeani suvining o'rtacha sho'rliqi 36,5 ‰. Okeandan olingan 4,5 tonna suvdan qancha tuz olish mumkin?

- A) 16,425 kg B) 164,25 kg C) 164 250 kg D) 16,425 t

29. Terrigen yotqiziqalar ko'p to'planadigan joylar rasmda qaysi harf bilan belgilangan?



- A) D, A B) F, B C) G, F D) J, B

30. Okeanlar va ularga tegishli dengizlar mos ravishda berilgan javobni aniqlang.

№	Okean nomi	Belgilanishi	Dengizlar nomi
1	Tinch okean	a	Skosh, Ueddell, Lazarev
2	Atlantika okeani	b	Chukotka, Bofort, Baffin
3	Hind okeani	c	Ross, Amundsen, Bellinsgauzen
4	Shimoliy Muz okeani	d	Hamdo'stlik, Kosmonavtlar, Riser-Larsen

- A) 1-a, 2-c, 3-b, 4-d B) 1-c, 2-d, 3-a, 4-b C) 1-a, 2-b, 3-c, 4-d D) 1-c, 2-a, 3-d, 4-b



1-qism: Har bir topshiriq 0,9 balldan baholanadi

1. Quyidagilardan qaysi biri O'zbekistonning eng janubida joylashgan tog' hisoblanadi?

- A) Oqtog' B) Qurama C) Zarafshon D) Bobotog'

2. O'zbekistonda Isroil bilan hamkorlikda paxta teradigan mashinaning yangi modeli qachon yaratilgan?

- A) 2000-y. B) 1994-y. C) 1998-y. D) 1992-y.

3. Quyidagi qaysi olim tuzgan xaritada Nil va Ra daryolari tasvirlangan?

- A) Ptolemey B) Xorazmiy C) Beruniy D) Nosir Xisrav

4. Korsika oroli qaysi davlatga tegishli?

- A) Italiya B) Gretsiya C) Ispaniya D) Fransiya

5. Qorako'l qo'ylari Mirzacho'l iqtisodiy rayonining qaysi qismida boqiladi?

- A) Sharqida B) Shimoli-g'arbida C) Markazi va janubida D) Janubida

6. Quyidagi qaysi davlat iqtisodiyoti eng qoloq agrar mamlakatlardan biri hisoblanadi?

- A) Vyetnam B) Bangladesh C) Shri Lanka D) Laos

7. Qaysi tog' tizmasi Antarktidani ikki qismga ajratib turadi?

- A) Erebus B) Transantarktida C) Desepshen D) Berlin

8. Quyidagi qaysi shahar nisbatan shimolroqda joylashgan?

- A) Koson B) Kogon C) Kattaqo'rg'on D) Samarqand

9. Kimyo va neft-kimyo mashinasozligi korxonasi respublikamizning qaysi shahrida joylashgan?

- A) Chirchiq B) Samarqand C) Qorovulbozor D) Andijon

10. Quyidagi xarita-sxemada 4 raqami bilan qaysi dengiz ko'rsatilgan?



- A) Liguriy

- B) Adriatika

- C) Tirren

- D) Ioniya



2-qism: Har bir topshiriq 1,5 balldan baholanadi

11. Kumtor oltin koni qaysi tog'da joylashgan?

- A) Markaziy Tyanshan B) Janubiy Tyanshan C) Otboshi D) Saur

12. Abiskun dengizi qaysi materikda joylashgan suv havzasining qadimgi nomi hisoblanadi?

- A) Afrika B) Shimoliy Amerika C) Yevrosiyo D) Avstraliya

13. Yevropadagi kichik rivojlangan mamlakatlar qaysi variantda to'g'ri ko'rsatilgan?

- A) Belgiya, Avstriya, Shvetsiya B) Lyuksemburg, Belgiya, Italiya
C) Polsha, Norvegiya, Daniya D) Shveysariya, Serbiya, Niderlandiya

14. Quyidagi milliy bog'lardan qaysilari Shimoliy Amerikada joylashgan? 1. Jasper; 2. Yosemite; 3. Manu; 4. Sekvoiya; 5. Parakas; 6. Vud-Buffalo.

- A) 1, 2, 3, 4 B) 2, 4, 5, 6 C) 2, 3, 5, 6 D) 1, 2, 4, 6

15. Quyidagi qaysi geografik obyekt Past Afrikada joylashgan emas?

- A) Tubkal tog'i B) Darfur platosi C) Kattara botig'i D) Assal ko'li

16. Quyidagi qaysi shaharlarda paxta tozalash hamda yog' sanoati uchun mashina va uskunalar ishlab chiqaruvchi zavodlar joylashgan?

- A) Toshkent, Qo'qon, Jizzax, Namangan B) Toshkent, Samarqand, Buxoro, Termiz
C) Toshkent, Farg'ona, Navoiy, Andijon D) Toshkent, Andijon, Samarqand, Kattaqo'rg'on


17. Agar yillik yog'in miqdori 300 mm, mumkin bo'lgan bug'lanish esa 1000 mm ga teng bo'lsa, namlik koeffitsiyentini aniqlang.

- A) 0,21 B) 1,32 C) 2,1 D) 0,3

18. Quyidagi qaysi mamlakat ichimlik suvini Malayziyadan import qiladi?

- A) Indoneziya B) Singapur C) Vyetnam D) Xitoy

19. Quyidagi rasmda qanday relyef shakli aks ettirilgan?



- A) Botiq B) Tepalik C) Yassitog'lik D) Cho'qqi

20. Yarimorolda joylashgan davlatlar to'g'ri berilgan qatorni belgilang. 1) Yaponiya; 2) Norvegiya; 3) Ispaniya; 4) Shri-Lanka; 5) Vyetnam; 6) Koreya Respublikasi; 7) Islandiya; 8) Kuba; 9) Italiya.

- A) 2, 4, 6, 7, 9 B) 2, 3, 5, 6, 9 C) 1, 4, 5, 6, 8 D) 1, 3, 5, 7, 8




3-qism: Har bir topshiriq 2,6 balldan baholanadi

21. Termometr tog' cho'qqisida havo harorati -10°C , xuddi shu paytda uning dengiz bo'yida joylashgan etagida havo harorati $+14^{\circ}\text{C}$ ga teng ekanligini ko'rsatdi. Tog'ning mutlaq balandligini aniqlang.

- A) 3000 m B) 3500 m C) 4000 m D) 4500 m

22. Terrigen yotqiziqlar ko'p to'planadigan joylar rasmda qaysi harflar bilan belgilangan?




- A) D, A B) F, B C) G, F D) J, B

23. O'rta okean tizmalarining uzunligidan 150 marta qisqa masofa necha gradus meridian yoyining uzunligiga teng?

- A) $4,2^{\circ}$ B) $3,6^{\circ}$ C) $3,1^{\circ}$ D) $2,8^{\circ}$

24. Quyidagi qaysi orol vujudga kelishiga ko'ra rasmda tasvirlangan tipga xos emas?



- A) Gavayi B) Pasxa C) Mariana D) Tasmaniya

25. 10° – 20° janubiy kengliklar oralig'ida joylashgan poytaxt shaharlarni aniqlang.

- A) Vindxuk, Jakarta, Lilongve, Kito, Singapur B) Antananarivu, Lima, Lusaka, Braziliya, Xarare
C) La-Pas, Asunson, Santyago, Maputu, Kigali D) Luanda, Dili, Montevideo, Lusaka, Maseru

26. Okeanlar va ularga tegishli dengizlar mos ravishda berilgan javobni aniqlang.

No	Okean nomi	Belgilanishi	Dengizlar nomi
1	Tinch okean	a	Skosh, Ueddell, Lazarev
2	Atlantika okeani	b	Chukotka, Bofort, Baffin
3	Hind okeani	c	Ross, Amundsen, Bellinsgauzen
4	Shimoliy Muz okeani	d	Hamdo'stlik, Kosmonavtlar, Riser-Larsen

- A) 1-c, 2-a, 3-d, 4-b B) 1-c, 2-d, 3-a, 4-b C) 1-a, 2-b, 3-c, 4-d D) 1-a, 2-c, 3-b, 4-d



27. Quyidagi xarita-sxemada 1, 8, 2 raqamlari bilan qaysi gidrografik obyektlar ko'rsatilgan?




- A) Azov, Apsheron, Adan
B) Egey, Ioniya, Sidra
C) Kaspiy, Kerch, Adan
D) Kaspiy, Bob-al-Mandob, Azov

